



Yaralangan Kòngillar

Muallif: Silvia Soljaris

#IBTIDONING DAVOMI...

YARALANGAN KÒNGILLAR..

Uzoq qimirlamay yotdim,qani uyqu kelsa.Xonam derzasiga urilayotgan qattiq shamoldan qochib gòyo uyga kirishga urinayotgam daraxt shoxlari,xonam bòylab mavhum-qòrqinchli atmosfera kasb etardi.Xona zim-ziyo,hech bir buyumni kòzim ilgamaybdi.Faqat òsha,derazaga urilayotgan shozlar ovozi.Kòzlarim toliqqn,ammo tin olmoqni istamaydi.Bu yotishdan foyda yòqligini anglab òrnimdan qòzğaldim.Tortma ustidagi elektor soat 04:23ni kòrsatardi.Kreslo ustidagi xalatomni paypaslab topdimda,kiymasdan turib,eshigim ortidagi kalidorchaga chiqdim.Kalidorcha shiftidagi chiroqlar xira va jonsiz nur sochar edi.Bu uyda va ayni shu kalidorcha bòylab tinchligi buziladigan Hayot ikalamizdan bòlak hech kim bòlmasada qadamimni ehtiyotkor bosib ,zina tòğrisidagi Hayotni eshigini oldiga borib,uni itardim.Xonada Hayotdan darak yòq bòlib,hatto tushagini ustidagi choyshablar buzilmagandi.Eshikni qanday ochgan bòlsam shunday yopib,kiyimim tugmachalarini oxirigacha yopganча,zinalar bòylab pastga tushdim.Vannaxonaga kirib yuz-qòlimni yuvib bòlgach,oshxonaga eltidigan yòlak oxiridagi yertulachaning chiroği yoqigligiga kòzim tushdi.Demak,shuğullanayapti...

Òyladim joyimda turganча.

Notòğri òylamagandim,yertula eshigini ochishim bilan kòzim Hayotga tushdi.Asilda bu yer yertòla emas edi,sport xonasi edi.

-Tushinga boks qopi kirdimi deyman-a?-dedim sekin yurib borib,Boks qopimi urayotgan Hayotni oldiga.

-Nimaga òzing uyqoq yuribsan?-u qopni urishni tòxtab etiborini menga qaratdi-tushinga men kitmadimmi ish qilib.?

-Yuq.Uxlamadim.Uyqu qayerda ekan!?!Sizning dardingizni tushinyapman shekilli.-jilmaygancha kursichaga chòkdim.

-Yaxshimas,har xolda uxlashga urinsang bòlardi.-dedida u yana qopni urishga kirishdi.Men esa ozmuncha vaqt uning har zarba berganida,uchib turgan sochlariga tikilib òtirdim va ahiyri òrnimdan turdim.

-Kun bòyi qanday yurasiza?Hech uyqing kelmaydimi?

-Yoq.

-Senincha meniyam shu hol kutyaptimi?

-Balkim...-u hech gaplarimga etibor qilmay mashg'ulotdan bòshamasdi.

-Haaayoot-yarim kulimsirab qop oldiga yaqinlashdim

-Eshitaman.

-Men ham uray.

-Men tugatdim-u urishdan bòshab menga qaradi.

Òng qulim bilan kutilmaganda mush t tushirmoqchi edim yuziga...Musht yetib bormay,u abjirlik bilan qòlimni qayirib meni òziga tortib,ortimdan quchib oldi.

-Yayayams qiz...-dedi Hayot quloqim tagida.

-Quyib yubor,hazilashdim-uning qòlidan chiqishga urindim.

-Men esa hazillashmayapman-u battar quchoqladi.

-Qòyib yuborsangchi axir!-yana tipirchiladim.

-Tsh-sh-sh-sh

-Hayot jaxlimni chiqazma,qòlimni qattiq...-gapim tugamay,u qòli bilan oqzimni berkitdi.

-Jim,eshik qòngiroqi chalinyapti-dedi va meni quyib yubordi.

-Telba!-qutulishim bilan undan uzoqlashdim.-eshikni òzim ochaman.

-Qòrqmaysanmi?-deganda u men allaqachon eshikka yunalgandim.

Kocha eshigi bor kichik zalcha bòylab yurib borayotganimda eshikni kimdir bir qattiq qoqar bir qòngiroqini chalardi.Eshikni ochsam ,ròparamda shamol tufaylidir sochlari pala-partish hòrpaygan bir yigit turardi.

-Keling-dedim bu kimsani shaxsiga qiziqib.

-Salom,menga Hayot kerak.

-Marhamat,kiring-eshikni keng ochib uni uyga taklif qildim.Yigitga kresloda òtirib turishini aytib,òzim Hayotni chaqirhani ketdim.

-Aftidan ,sizlar meni bilmaysizlar-shunday deb yigit gap boshladi-men Firdavs dòstingizni ògli bòlaman-uning ozmuncha jiddiy yuzlari yoyildi.

-Rayxonanimi?-meni kòzlarim yondi.

-Shunday.

-Juda yaxshi,dòstimning ògli ekansan.Firdavsni òzi qayerda,kòrmaganimga 15 yil bòldi.Bevaqti soat yuqlab kelibsan,muammo bormi?-Hayot yigitga tikildi.

-Havot.sizda ushbu qaplarni vetkazishkmni dadamni ozlari shaxsan

-Men bugun "zal" dagi ishlarimi Nozimga topshirib Qozoğostonga ketaman.

-Shuncha ertami...?-bezovta bòldim men.

-Bòlmasam kech bòlib qolishi mumkun.senga yuklanadigan topshiriq bu-dòstlarni yígish bòladi.-Kim?nimaga aynan men?!-sapchib òrnimdan turib ketdim

-Qozoğostonga ketmoqchimisan?-Hayotni sòravi ancha bosiq chiqdi.

-Yòq,shunchaki men ularni qayerdan topaman demoqchiman?Oradan qancha òtdi,barchasi har yerga taralib ketgan.

-Muazzam bular senga qiyinchilik tuğdirmaydi-u mehribon jilmaydi.-

òzingdagi qobiliyatni ozgina qayrasang ularni izlashing osson kechadi.Òyla,sen ularni òrnida bòlganingda qayerdan bòlarding?Bor yògi shu...sen albatta ularni topasan.

-Aytish ossonda-chiqur nafas olib,yana òzimni kresloga tashladim.

-Amalda esa bundanda osson-deya u ornidan turdi.

-Qayerga?-men qiziqdim.

'-Vannaxonaga...mumkunmasmi?-u kulib qòyib,aytgan yeri tomon ildamaladi.

Rostadam aytish osson,uningcha men ularni òrnida qayerda bòlishimni òyalayman va ularni topaman.

Bu uchiga chiqqan jinnilik,balkim men ularni òrnida Avstraliyaning bir chekka changalzorida bòlishni xohlasam ularni biri òsha yerda bòladimi? Bekorgap bòlmagan tirikchilik.Uni utiga men hammaniyam òrnida bòla olmayman,masalan:Shoxzamin.Uni òrida bòlib,qayerdadir chirib yotish,miyyamni portlatib yuboradi.Bunday qobiliyatni rivojlantirish uchun,vaqt va medetatsiyani ayamalik lozim.

Ertalabki shamoldan asar qolmay tushga yaqin kun ochilgandan ochildi.Aprelni òrtalari,toğdagi maysalar yam-yashil,undagi sariq doğdek turgan boychechaklar,quyosh boboga salom deyayotgandek qiyğoz ochlib turardi.Kòk yuzida birorta bulut yuq,havoning tozza isi odamni mast qiladi.Hayotni òzi boshqaradigan "trenajor "zaliga jònatib,òzim uy oldidagi tepalikka chiqdim.Òz odatimga kòra medetatsiya bilan shuğllana boshladim.Toğli,tinch joylar bu kabi mashğulotalr uchn ayni muddaodir,qariyb 5yilki "yoga"mening hamroxim.Agar insonlardek bòlganimda bu hobbiym bilan kòpga borgan bòlar edim.Lekin odam bòlganimda bularga menda imkon bòlmasdi.Hozirgi holatimdan ham hecham tashvishlanmayman.34 yoshda bòlsamda,terim,jismim 19-20 yoshlarnikidek .Òzimga unchalik bilinmaydi,ammo Hayotni aytishicha yoshlikdagi fe'lim òzgarmagan ekan.Hayot kechi payt,tun tushganida uyga keldi.-Nima bòldi?-dedim shoshib tepaga chiqib ketayotganida.Ayrim vaqtlari uning bir oğiz sòzsiz befarq bòlib qolishlari jinimni qòzitadi.

-22da Qozoğistonga uchaman...-degancha u yulida davom etdi.Men ham joyimdan qimirlamay ishimni davom etdim.

5daqiqqa bòlmay u yana shunday shoshgancha pastga tushib keldi.

U kiyimini òzgartirgan edi,ancha did bilan kiyinibdi qoyil.

-Muazzam!-chaqirdi u meni.Kitobni stul ustiga qòydimda oldiga bordim.-

Qachon kelasan?-dedim devordagi kòzguga qarab sochlarini

togrilyotgan Hayotga.

-Kòpga mas,yiğadigan odamlarimni manzili òzgarmagan bòlsa,tez

kelishim mumkun.

-Yaxshii,menda biror gaping bormi?-shoshayotgandek kòrsatdim òzimni.

-Marjonaga ayt,uyga kelsin,Òzim shaharga qaytgach uzoqroqqa

jònataman.Biz deb uning joni havfda qolmasin.-u ishini tugatib etiborini

menga qaratdi.

-Iltimos sendan,qobiliyatingni uyğot.Ishon,barchasini ustidan chiqasan

ozroq harakat qil.Sen dòstlarni topishing kerak,ularga vaziyatni

tushuntir,yordamlarini ayashmaydi-ishonch bilan dedi u.

-Mayli urinib kòraman,yanayam irodam yetmaydi deb qòrqaman.-

hafsalasizlik bilan yuzimni ògirdim.

-Men senga ishonaman,sen kuchli qizsan Muazzam,barchasini

uddalaysan.-u ikki qòlini yelkamga qòydi-sensiz shuncha vaqt qanday

yashayman bilmadim-u yuzini yuzimga yaqin olib keldi,orada 3-4

sm,undan mayin atir ifori ufurib turar edi....mendan ozga qiz uning

ròparasida bòlganida,uni asirasi bòlib qolar edi.Bu ifordan bu

harakatlardan mast bòlar edi,ammo men emas.Oxirgi soniyalarda

yuzimni burib oldim-Hayot kechikasan-dedim yuzlariga qaramay,uning

lablari yuzimga tegay-tegay deb toxtagandi.U mayin lablarini yuzimga

bosdi va "yaxshi"degancha mendan uzoqlashdi.Uning birgina shu sòzida

kinoya bor edi,kòzlarida esa dard.Lekin ular kulib turardi,hatto egasi

azobda bòlsada.Hayot eshikdam chiqib ketgach,kresloga holsiz

òtirdim.Zum òtmay garajdan sherdek òkiringancha minga qòyib chiqib

ketgan "Jip"ning ovozi keldi.Hayot ketdi.

16yildirki shu muammo-uni sevolmayman.Bu hech qachon amalga

oshmaydigandek tuyuladi.Lanat tegkanmi bu tuyguyimga .Hayot

yaxshi,meni tushunadi.Lekin har qanday sabrning chegarasi bor.U

mendan vos kechmaydi,shunchalik òjar u.Uning ma'yus kòzlari meni shu

yerga asi qilib qòygandek.Ketishidan oldingi qilgan harakatlari meni

noqulay vaziyatga soldi.Yuzimni burdim,kòzlariga qaraganimda butunlay

sehirlanib qardim.Hayotga yaqinlasha olmayman,bilmadim nega,Lekin

haligi ishdan u ham men ham boshqacha bòldik.U hoxlagandi,men yòl

qòymadim.

* * *

28-mart.Toshkent shahri.09:13

-Mariiiiiiiiiiii,Tur deyaqman senga!-Laziza sochlarini tarar ekan,dugonasini uyğotdi.

-Mari dedim.Uyğon,teatrga kech qolamiz.-Laziza qòlida taroq bilan kelib

uni turtib uyğota boshaldi.

-Laziii yuqol.Tinch q❖❖y,uxley-Marjona kòrpani boshini ustigacha tortib oldi.

-Tur.Bugun yakshanba.Ammamning qizi bugun 1-marotaba teatrda ròl òynaydi,bormasayli ranjiydi axir!-dedi Laziza zorlanib.

-Hozir turaman,dam olishniyam rasvo qilding.-degancha Marjona òrnidan turib,indamay vannaxonaga kirib ketdi.

-Mari 10daqiqada tayyor bol.Azizani kiyintiraman-deb tarođini olgancha Laziza Marjonani honasidan chiqb ketdi...Marjona erinibgina yuz-qòlini yuvib chiqgach òzini oynaga soldi.Ozgina shishgan qovoqlar tabini xira qilib,yuziga upa surtdi.Kòpga bormay shusiz ham gòzal bòlgan yuz yanada gòzallashdi.Marjonaning ixcham sepkilli yuzi,ozmuncha qalin jigarrang qoshlari,kichik burinchasi jingalak qoshlari kabi jigarrang sochalari uni juda yoqimtoy kòrsatar edi.Sariq tugmali koftasini va qizil shimini kiyib bòlgansi hamki,Laziza kirib keldi.

-Bòlaqol buncha ođir karvonsan.

-Bòldim,krosofkamni olay-deya shkafni qayta ochib krosofkasini oldi va Qizlar uchталashib teatrga ketishdi.Bugun Yakshanba emasmi odam teatrda i❖❖il-diđil edi.Lazizani amakisini qizi Komila bugun ilk marotaba saxnada ròl òynar edi,shuningchun Lazizaga tekin chipta tegkan edi.

Qizlar katta zalda òzlariga berilgan òrindiqlarga òtirishdi.Teatr boshlangach ular kòrishdiki Komila boy otaning erka qizini yani bosh ròlni òynar edi.Uning sherigi esa bir hinarmand yigit saxnada Komilani oshođi ròlini òynaydi.Marjona bir tomondan bu yerga kelganidan afsuslanmadi,ammo baribir oz ornida yakshanbani xis qilib uxlagisi kelar edi.Vanixoyat spektakl tugab,barcha òzini eshikga ura boshlagan vaqt,Marjonaning telefoni jiringlab qoldi.

-Eshitaman-dedi u shovqin tufayli ovozini kòtarib.

-Marjona tuzukmisan-telefon ortidan Mohira kenoyisini qòngiroqdek ovozi yangradi.

-Assalomaelykum,Mohira kenoyi yaxshimisiz.

-Raxmat asalim,men yaxshiman.

-Tinchlikmi?Yoqlabsiz Nodir ukam yaxshimi? amakimlarchi?

-Yòqda qizim.Ahvoling yaxshi bòlsa Laziza dugonanga ayt,Qosim amaking bilan 1haftaga bormay Òzbekistonga qaytamiz.

-Nima bòldi kenoyi?

-Shu amakingni picha mazzasi qochdi.Vatanimga qaytaman deyaptilar.Germaniyani shifokorlari ancha òquvli tez tuzalasiz desam,Yoq Vatanimga qaytaman deb turib olganlar .Shifokorlar ozmuncha sođayib ,yòlga yaraydigan bòlib qolsa,4-5 kunda javob beradi.

-Vooy shundaymi?Hop Lazizaga aytaman,keladigan kunlaringiz òzimiz aeraportga borib kutib olamiz.-Yaxshi qizim dugonanga aytib qòy,telefonini yoqib yursin,100marotaba qòngiroq qildima-a.

-Hòp bòladi,kenoyijon hòp.

Marjona telefonni òchirgach zalda odam qolmaganini kòrib kapalagi uchib ketdi.

Eshikdan chiqib u yoq bu yoqqa qaradi,qani dugonasi va kichik Aziza kòrinsa!

-Laziza-yey!Qanday begam dugonasan,manavi Marjona qani ham demay indamat surib yuboribsana...-degancha tez-tez ketar ekan g'arb tomondan chiqib qolgan tanaga urilib ketdi.Zarba kuchidan Marjona kapalakdek nimjon qiz bòlganligi uchun yerga o'tirib qoldi.

-Uzr sòrayman-deya tana egasi unga qòl chòzdi.Qiz dastlab uning oppoq tilla soatli qòliga sòng yuziga qaradi.

"YO hudoyim!spektakldagi hunarmand yigitmi?!Yuzlari buncha g'aroyib hech kimga o'shqamaydiya,ozbekmikan ?iya uzr sòradiku ozbekchalab,uzoqdan uncha etibor qilmabman,yaqindan ancha yoqimtoy ekan.Malla aralash qòng'irrang qoshchalariga ozimni osay!" degan kòp gaplar Marjonaning hayolida qaynay boshladi.

-Kechirasiz!-degan yigitni ovozi kòtarildi.

-Yaxshi-deb Marjona unga qòlini uzatdi.Qiz uning qòllari juda issiqligidan qolini tez tortib oldi.

-Inson degani yon-atrofga qarab yurishi kerak-Marjona qovo'gini uydi.

-Uzr sòradinku-deya yigit unga beparvolarcha nazar solib,yòlida davom etib ketdi.Marjona biror sòz deyolmadi,ortidan gapiray desa odobsizlik,gapirmay desa bu ham u uchun osson emas."Yaxshisi"deya oyladi u va miyyasidagi yuzaga chiqardi.

-Chiqish eshigini kòrsatib yuborolmaysizmi?-u yigitni ortidan baqirdi.Yigit joyida tòxtab sekin-sekin qizni oldiga kela boshladi

-Tashqariga chiqish niyatingiz bòlsa notògri ketayapsiz.Chiqish eshigi qarshi tomonda-ortiga bir qarab qòydi notanish yigit.

-Siz ham tashqarigami?

-Shunday.

-Birga ketishga qarshi emasmisiz-qiz ehtiyotkorlik bilan sòradi.

-Yoq -dedi yigit va marhamat degancha yol boshatdi-Spektakl ajoyib chiqdi-Marjona jim yurishni hoxlamaya gap boshladi.

-Sizga yoqganidan mamnunman.

-Avvaldan mana shunday teatrlarda ròl o'ynaysizmi?Bu yerdagilarni kòpini taniyman,siz esa notanish aktyorsiz.Uni ustiga aktyor ham deb bòlmaydi sizni...

-Tògri oylabsiz men san'atkor emasman.

-Unda kimsiz?-qiz yigitga qiziqib qoldi.

-Jaa kòp narsani bilib yubormadingizmi?-yigit sinchkovlik bilan ròparasidagi jingalak soch qizga tikildi.Bundan noqulay bòlgan Marjona

-Yoq-yoq,kòp narsa bilmadim.Shunchaki sòragandim,ròlingizni qoyilmaqom ijro etdingiz,ilk bòlsada, gap yoq.

-Hurmatli notanish muxlisam,eshik mana bu yerda-deya yigit eshiktomknga q❖❖li bilan ishora qildi.

-Sizchi?

-Men boshqa tomonga.

-Mayli,kòrishguncha -dedida Marjona yigitga jilmayib qòygancha eshik

tomon ildamladi.Yigit unga oz fursa qarab qolganini sezmedi ham,sòng boradigan xonasi tomon yòl oldi.

* * *

Uzoq hayollarim bilan òtirib qoldim.Sòng tepaga chiqib yotib uxladim.Ertasiga tongda Hayotni tanishi "Jip"ini garajga tashlab ketdi.Bu hayxotdek uyda men uchun ish yoq,2ta bòlib yashasaylik qayer betartib bòlar edi.Onda-sonda chanlarni artib chiqib turaman-u barbir oğir ish yòq.Avval Marjona yoshligiga uy ozgina tòzğir edi.Biz Hayot ikkalamiz bi qòngiroq soch qizaloqqa 14 yil yaxshi qaradik,aytgani-aytgan degani-degan bòldi.Shuni aytish lozimki bizni bu yerga kelganimizga 5yil bòldi,orada Toshkent viloyatiga ketdik,u paytlari Marjona 4 yosh edi.U yerda qizaloq boğchaga bordi,ta'lim oldi.15 ga kirganida Jizzaxga ketamiz desaylik,u shu yerda qolaman deb turib olgandi.Lazizani onasi bizga tanish edi,juda mehribon va latofatli ayol.Eri Germaniyada ishlagani uchun boy bòlsada saxiy qòli ochiq boylardan edi.3nafar farzandni tarbiyalab hech oz gòzalligini yòqotmagan ayol Marjonani ular bilan qolishini òzi iltimos qilgandi."Muazzam,jon singlim.Shu Marjona singlingizni biznikida qoldiring.Hayotjon ikkalangiz hali yoshsizlar shaxsiy hayotingiz bòlsin.Qòrmang,Marjona qizim meni oz bolamdek.Laziza bilna yoshlikdan òrtoqda yana dugonalar ayrilib bir-birlariga ichikib qplishmasin."degandilar.Bu ayolga ishondim Va Marjona ularnikida qoldi.Men u ayolga Hayot bilan yaqinda turmush qurganimizni va ota-onam erta vafot etib ketgach yolğiz singlim ozim bilan qolganini aytgandim.Mana 4yildirki Marini har har zamonda yòqlab turaman.Lazizani otasi onasi va ukasini Germaniyaga olib ketgan Laziza va singlisi Marjona ammalari qarmogida qoldi.U jida chiroyli qiz bòlgan.Oradagi kunlar meditatsiya bilan òtdi,toqqa chiqib peshingacha ichki hotirjamlik qilaman.Hayot tayinlaganidek fikrlarimini janlashga urinaman.Bugun 4-kun bòlib toqqa chiqmadim,qayerdandir paydo bòlgan ozimga bòlgan ishonch joy va vaqt tanlamadi.Varoqchaga dastlab Arslonni ismini yozdim,chiqish eshigi bor zaldagi kresloga òtirib ozimni bosh qòyib,qollarimni tizzamga qòydim.Kòzlarim yumuq holda miyyamdagi keraksiz òylarni quvdim,zimiston ichida Arslonni butun bir yuz qiyofasini aks etdim.Uning suratini butunlay yigib bòlgach u bilan òtgan kunlarimni òyladim.Bunga 17yilcha bòlib qoldi,lekin men òtmishimni aslo unutmaman.

Barcha gaplarni birma-bir eslab chiqdim,ular ichidagi bir-ikki holatlar etiborimni tortdi.U menga vampirliklarini aytgan kuni kòzida kòzoynak bor edi,bunga ajablangan edim,keyin u "òqishdan kelyapman "dedi.Savol:uni qayerda uchratdim?bor kuchim bilan òsha kunlarni eslashga ,atrofni òrganishga kirishdim.Qani bu osson bòlsa,huddi atrogni tuman qoplagandek gòyo,Faqat bekatda turganimiz yodimda.Tòxta,bekat qayerni bekati?Onam ishlaydigan shifoxonani chap tomonidagi "pedagogika"instutining bekati edi.Uniki bòlmasada,odatda institutdan chiqqan talabalar osha bekatdan aftobuzga òtirishar edi.

Naxot Arslon o'qituvchi yokida shunga oshaqagan biror kasbni tanlagan bo'lsa. O'ylab ko'rsam Arslon boshqa kasblarga unchalik mos emasdi. Yo hudoyim! ozgina bo'lsada yo'l korsatdin, balki asosiy yo'lnidir...

Holsizlanib divanga cho'zilib oldim, boshib quvillab miyyam qotib qolgandi. Ertasiga vaqtni ko'p cho'zmay, qachondan beri chang bosib yotgan "prado"ni minib Arslonni izlagani yo'l oldim. To'g'li hududdan chiqishda mashinani "moyka"qildirib, shahar tomon yo'limni davom etdirdim. Ixtisoslashirilgan va prezident maktablarini ko'zdan kechirdim, 6-umumiy o'rta ta'lim maktabiga kelganimda soat millari 12larni ko'rsatar edi. Bu maktab yangi qurilgan edi, buni maktab hovlisidagi yangi ekilgan gul va daraxtlardan bilsa ham bo'ladi.

"Arslon ismli o'qituvchilaringiz bormi?" dega savolni qayta-qayta maktab o'qituvchilariga bergan o'g'zim bu safar ushbu savolni navbatchi o'qituvchiga berdim

-Kechirasiz-u, bunday ismli o'qituvchi bizda yo'q. Asilbek ismli bir yosh yigit ishlaydi, bundan boshqa A harfidan boshlanadigan erkak o'qituvchimiz yo'q

Navbatchining javobi meni qoniqtirgandek bo'ldi.

-Nimadan dars beradi?- najot kutgandek ayolga qaradim.

-Geografiya-matematikadan, sizga bu ma'lumotlar nega kerak?-o'qituvchi ayol shubxa aralash menga baqraydi.

-Aytolmaysizmi osha yigit hozir qayerda?-ayolni gaplarini eshitamagndek surishtirishni dav etib ketdim.

-Hozir tushlikda bo'lmasa 7-a sinfda darsi bor. Kimligingizni aytasizmi?-ayolning qotmadan kelgan yuzi jiddiy aralash asabiylashdi.

-Raxmat -deganCHA kalidor to'risi tomon yugirib ketdim.

-Qayerga ketyapsan? Kimsan?! ey qiz...shoshma. Menga gap tegadi-deganCHA navbatchi ayol ortimdan shang'illab qoldi. It quvgandek tez-tez yurib ketayotib oldida otayotgan sinflarni eshigidan 7-a degan yozuvni axtarar edim. Topdim ham, chuqur nafas olib eshikni ochdim, hayajonli daqiqalar....

Eshikni ochishim bilan sinf to'la o'qituvchilar menga angrayib qolishdi, zum otmay barchasi baravariga turib salom berishdi. Ko'zim o'qituvchi stolida otirgan 30yoshlar chamasi oqdan kelgan yigitga tushdi.

-Asslomaleykum, Asilbek sizmisiz?-menga qiziqish bilan qarab turgan yigitga dedim.

-Yoq, o'rniga men dars otayapman-dedi yigit samimiy.

-Unday bo'lsa uzr-deya eshikni yopib sinfdan chiqdim. Sal qoldi yaxshiyam u Asilbek emas ekan, agar men deganida umusizlikga tushib chorasiz qolar edim. Maktab boshqacha qancha yoshligimni qoralamay u damlarga qaytishni hoxlar edim. Ken kalidor bo'ylab ketayotsam, ong tomonda bir eshikdam bir o'qituvchi chiqib to'griga qarab keta boshaladi. Meni payqamadi ham

-Kechirasiz-uning ortidan baqirdim-maktab oshxonasini ko'rsatib yubora olmaysizmi?

Osha kimsa men tomonga ògirildi

Yo tavba! Bu Arslonku! osha-òsha jiddiy kòrinuvchi yuzlar va sariq kozlar.Oq kòylak va qora shim yarashganinichi bu yigitga!

-Ars-lon!-benixoya qichqirib yubordim.

-Muazzam òzinmisan?-u yuzlarimga tikildi va oldimga uchib keldi-ha,ozingsan -u meni qucjoqlagancha aylantira boshladi.-Bormisan qadirton,seniyam inson sođinar ekanu-deya hayajonli gapirardi u.

-Bòldi-bòldi tòxtat-uning yelkasiga urib qòydim-boshim aylanib ketdi.

-Meni qayerdan topding,yoki biron ish bilan yurganmiding?-quvonardi Arslon.

-Bu yođi turib aytildigan gaplar emas

-Yaxshi-yaxshi oshxonaga boramiz,bir chashka kofe ustida sòzlab berasan-u tirsagimdan tortdi.

-Mayli

Biz maktab oshxonasing bir chekasidan joy oldik,jilmaygancha bir juvon kelib kofe tashlab ketdi

-Bu yerlarda nimalar qilib yuribsan?Bolalaringni maktabga gaplashgani keldingmi?-Arslon kofeni puflar ekan-ha,aytgancha seni bolalaring hozir ancha òsib qolgan bòlsa kerak,balkim ish izlab kelgandirsan.

-u òzining sòzlaridan bir kulib qòydi.

-Yoq-meni ovozim ozim istamasamda tund chiqdi.

-Unda nima qilib yuribsan,aytging kelmasa miyyangga kirishimga yòl och-ovozini pastlatdi-vampir bilan yashab bizdakalarni oldida ozingni qanday tutishni òrganib olibsan,tasanno!-Arslon chinakamiga chin yurakdan jilmaydi.

-Muammo boshqa-Arslonni yuziga qaramay etiborimni boshqa yoqga chalđitdim-Bola ham Hayot ham yòq

Arslon shoshmasdan nafas oldida ikki qòlini iyagiga tiradi-

Iltimos,ochoqroq gapir-kipriklarini pirpiratib qòydi

Unga barchasini ilojim boricha qisqa tushintirishga urindim.Marjonani asrab olaganimizni ,sevgilimda kònglim yòqligini va 16 yildan buyon hamon turmush qurmaganimizni,hiddi dòstlardek ikkalamiz 2xonada yashashimizni aytdim.

U qaxvani bir xòplab-Sabab bormi?-dedi

-Shunchaki kònglim yòq

-Bundan dòstimni habari bormi?-uning qoshlari chimirildi.

-Bilmayman

-Qayerdan bilar eding...axiir...-uning gapini davomini eshitgim kelmadi.

-Arslon bòldi,eshitishni istamayman-kòzlarimni qattiq yumib,yuzimni burdim.

-Sizlar yosh bola emassizlar-Arslonni ozgina zarda aralash ovozi yangardi.

-Jim dedim,iltimos,u faqat kònglimga qaraydi-qòllarim bilan yuzlarimni berkitdim.

-Nega unga bunday qilayapsan?aybi uni òtmishimi yoki qonxòrligimi?yo

bòlmasam hiyonat qildimi?Ayt seni nima azobga solayapti?-u

chinakamiga asabiylashar edi

-meni ortiq qiynama,bòldi-qòlimni peshonamga tiradim-muddao boshqa.

-Bundan ortiq muammo bormikan-u kinoyali yiz burdi.

-Mustafoni odami "банда"yig'ayapti-beetiborlik bilan asl maqsadga kòchdim.

-Mustafo allaqachon òlgan emasmi?

-Izsiz yòqolgan,bizga bularni Firdavsni ògli aytdi,Firdavs uni

kòrinbdi.Uning qobiliyatidan habardor bòlsang kerak.

Hayot yigitlarni yig' dedi,òzi esa Qozog'istonga ketdi.

-Bu bashoratga ishonsa bòladimi?

-Ishonmasdan iloj yòq,malum bòlishicha u hali Òzbekistonga kirmagan,u tayyorlanayapti,jang boshlamoqchi.

-2 ta savolim bor-u barmoqi bilan ikkini kòrsatdi.

-Yo hudoyim,Arslon!Bu yerda 2ta emas,kòp savollar yuzaga kelayapti.

-Òzingni bos,u kim va nimaga urush qilmoqchi.

-Bilmayman,Hayotni taxminicha u Mustafoni ògli,ismini Fotix dedi.

-Tushunarli-òyga botdi u.

-Iltimosim shuki,sen va boshqalarni bizga yordamingiz zarur-men

òrnimdan turdim-boshqa dòstlarni qayerdaligini bilsang kerak.

-Qisaman ha-u ham joyidan qòz'galdi.

-keyinroq biz tomonlarga òtsang,birga izlarmiz.Manzil * tushunarli

bòldimi?

-Yaxshi -deb menga ergashdi u.

Birga kalidor bòylab ketar ekanmiz

-Asilbekman degin-ayol aytgan gapni aytdim jilmaygancha.

-Shunday bòlib qoldi,xalq ichida Arslon bòlish o'g'ir ekan-u irshaydi.

-Ishing yaxshi,bolalar havfda emas deb umid qilaman

-Men parxezdaman-ku,Aytgancha òzingni qizing qalay?-u Marjonani nazarda tutdi.

-Ismi Marjona,hozir katta bòlib qolgan-dedimu ,tutungan qizimni eslab labimga kulgu yugurdi.

-Nasib qilsa kòraraman,sendan gòzal bòlsa ajab emas-u keng jilmaydi

-Ha ,u gòzal-oxirgi aytagan gapim shu bòldi,eshikga yetganimzda u bilan hayirlashdim,bu yo'giga òzim ketishimni aytdim.

Yelkamdagi zambildek to'g'ni yarmi arigandek bòldi.Bu yerga kelib azob

sotib olgan bòldim,Arslonni har aytgan gapi yuragimga borib nishdek

sanchilar edi.Òzimga achaman,naqadar xissizman.Mashinani to'g'

tomonga burmay,tòg'ri Hayotni avval boshqarayotgan mash'gulot zaliga

qadam ranjida qildim.

* * *

Inson sevib qolsa,har narsa,atrof-kurrayi zamin gòzal kòrinar

ekan.Yurakda sevgi kurtaklari ochilishi,qalbg'a iliqlikni olib kiradi,siz

uchun doim bahor bòladi.Qishni sovuq kunlarimi,yozni chillali vaqtimi

farqi yòq,uni kòrfaningizda tanangiz òt bòlib yonadi.Ikki yuzingiz qizarib yurak qafas ichidagi pirtilloq qushga aylanadi.Marjona sezmasdi tobora uni sevib qolayotganini,"yurak bòlishi mumkunmas"desa aql:"axir endi 10kun bòldi"deyar edi.U hech biriga quloq solmas edi,vaqt izmiga qarardi.Ularning tobora kòp-kòp korishishlari,hech bòlmaganda tasodifan kòrishib qolishlari,yigitni ham qizni ham òz xislarini larzaga solar edi. Teatrdagi holatdan 2kun òtib,Marjona maktabdan kelar edi.Jingalak sochlari hòl,sepkilli yuzlari esa sovuqdan qizargan edi.U òylardiki bugun ining eng baxtsiz kuni,ustozni ayrim sabablarga kòra darsdan sòng olib qoldi.Lazizaga ketib qolmasligini tayinlashiga qaramay ketib qolgan,yòlkira puli esa allaqachob kastyumi chòntagida ivib bòlgan edi.Osmonda sharros yomg'ir,lekin issiq emas,sovuq ham emas.Hòl kiyimda loyga botganча yòl chetida Marjona g'amga botib kelardi.

#Yaralangan_kòngillar

Baland inshoot oldidan òtayotganida,kòlmakdagi suvni bir mashina sacharatib òtib ketdi.Kiyimida tortib yuzigacha loyga bejalgan Marjonani tomo'g'iga bir nima tiqildi,kòzlarini yumib-ochib tez-tez nafas ola boshladi.Maqsadi yig'lab yubormaslik edi.Bu ust-boshda shuncha yòlni qanday bosib òtadi?Yòlida odam zoti kamdir,ammo òziga bu holati hecham yoqmayotgan edi.Oyoqlari yurgisi kelmay harakatga keldi,kòp yurmay ozidan òng tomonda turgan mashinaning qoraytirilgan oynalaridagi òz aksiga kòzi tushdi.Qanday achinarli!Yuzlarida loy do'glarisochalarida ham,kiyimi bir ahvolda lablari esa kukaray deb qolgan,axvol òtta rasvo.Mashinaga yaqinroq kelib sochlariga qòl tekizdi,chakillab suv oqayapti.

Shunda u qarab turgan mashina oynalari tushirildi,tushirilgan oyna ortida unga òsha teatrdagi yigit qarab turar edi.Marjona boshqacha bòlib ketdi,unga oz fursat angrayib qolganini sezib,tezda òzini nari oldida,yòlida shoshgancha keta boshladi.U bilmagandi bu mashina ichida odam bormi?yòqmi deb.Bòlsada u yigit bòlishini aqliga keltirmagan edi.

-Uzur sòrayman!-ortidan ovoz keldi.

Qiz ortiga ògirildi,mashinasi oldida yomg'irda yigit turardi.

-Hechqisi yoq-degancha qiz yana yòli tomon ògririldi.

-Shoshmang-yana ovoz berdi haligi yigit.Marjona tòxtamasada qadamini sekinlatdi.

-Yomg'ir noqulay emasmi?-yigit unga yetib olgandi.

-Noqulay,ammo boshqa chora yòq-u yashirib òtirmadi.

-Ust-boshingiz ivib ketipti,yuring mashinamda uyingizga eltib qòyaman-yigit qiz kutmagan iltifotni qilib uni lol qoldirdi,ammo yuzaga chiqarmadi.

-Yaxshi yigit yòlingizdan qolmang-u ming buni istasada rad javobini berdi.

-Bu ketishda ketsangiz òzinga yomkn bòladi,yuring eltib qòyay

Marjona sòzsiz yigitga qaradi,uning yuzlari hòl,sochlaridan esa yomg'ir tomchilari òynardi.

-Nega bu qarorga keldingiz bilmadim-u,ozingizga jabr qilyapsiz ortimdan

ergashib-qiz ozgina jilmaydi-roziman faqat orqa òrindiqqa òtiraman.

-Yaxshi-yigit bundan mamnun bòldi.

-Yomg'irni yomon kòraman-qizni qovoqlari uyildi,ular mashina oldiga kelishganlarida esa-aytinchni bu ahvolim bilan oriqlaringiz rasvo qilmaymanmi?-sòradi noqulay bòlib.

-Bu shunchaki buyum-qisqa javob qildi Marjonaning yangi tanishi.Qizning ozi kulmadi,kòzlari kulganча òrindiqqa joylashdi.

Shu-shu ikkalasi yaqin dostlarga aylanishdi.Marjona ochiq qiz edi,dòstidan tortinmas ozining yaqin insonidek kòrardi.Unga òzgalarni gap-sòzini qizigi yoq,u oz qilayotgan ishlarini tògri deb bilardi.Yigit va aiz òrtalaridagi dòstlik bòlmaydi,bòlsada kun kelib bu ikki yoshni sevgisiga ayalanadi.Hech bir juftlik birdaniga sevishib ketmaydi,avval dòstlik sòng qalin dòstlik keyin esa muhabbat..Eng yaxshisi yigit bilan dòst bòlmagan ma'qul,buni davomi hech òylanmagan vaziyatga olib keladi...

Zalda humorim chiqquncha shug'ullandim.Uyga qaytayotganimda havo bulut,tun tushgandi.To'g yòlida mashinalar serob edi,e'tiborimni chalgitmaslik uchun magnitafonni yoqmadim.Hayolimga Marjonaga telefon qilish fikri keldi,lekin ròdaligik yodimga tushib,yaxshisi ertaga qongiroq qilishni reja qildim.

Uyga kelgach dush qabul qildim va huvillagan uyni huvillagan xonasida yakka òzim uyquga ketdim.

Uygonsam eshik taqillar edi,ikkinchi qavatgacha ovozi yaxshigina eshitildi.Kimligiga òylab kòrsam qiziqish esimga tushmadi,halatimni ilgancha pastga tushdim.

-Hayrli kun-dedi Arslon eshikdan kirar ekan.

-Hayrli -dedim quruqqina-soat necha bòldi?

-15takam 8

-Hozir kiyinib chiqaman,òtira tur-deb zina tomon ildamladim,bir nima yodimga tushib qoldi joyimda tòxtab Arslonga ògirildim-choymi yoki qaxva ichasanmi?

-Sòraganing uchun raxmat,lekin shartmas-u uzun kresloga òtirdi.

-Hop.

Xonamga kirib,tògri kelgan kiydimda,yengil plashimni ildim.

Sochlarimni hozir turmaklab ,ozimga oro berish yoqmayotgan edi.Oyo'gimga baland qizil-qora aralash rangli kablokli tufliyimni kiyib xonadan chiqdim.

-Shoxzamonni izlaymizmi oldin,yoki Laziznimi?

-Sen Shoxni izla men,Laziznikiga boraman-dedi Arslon òrnidan turib.

-Men Shoxni qay gòrdan topaman-jaxlim chiqdi meni.

-Osson,Shaharni kòzgakòrinadigan luboy bar bormi klubi bormi

kirasanda barmendan kecha tunda kelib, qaysidir xonada o'chib yotgan bir yigitni sòraysan. Ishonchim komilki osha yigitlarni 98%i Shoxzamin janoblarini o'zlari bòladi. Hecj bòlmaganda klublar oldidagi mototsiklni izla-degancha dòstim indamay yurib keta **boshladi**.

-Yaxshi-kuya, Arson men uni qanday kòndiraman. Balkim... ozing borib gaplasharsan u bilan. -sekin uy eshigini yopib Arslonni oldiga bordim.

-Sen qidiraver, bitta yarimta burchakdan topgudey bòlsang ozim sizlarni topib olaman.

-Mayli, ozinga qara

Uyimiz tepaligidan tushganimzdan sòng o'z mashinalarimga o'tirdik, men Shoxni Arslon esa Lazizni izlagani ketdik.

-Kechiarsiz bizda bunday mijoz yoq-dedi dastalb kirgan klubim barmeni. Inadamay restoarndan chiqib ketdim. Mashinani o't oldirib yòlimni davom etdirdim. Shox kòchada ketayotib restoran va klublarga qarab

ketardim, zora birontasida mototsikl bòlsa. Axiyri tez yurishdan ensam qotib, yezlikni oshirdim, qayerdandir qora mototsiklga kòzim tushdiyu mashinam tormozini shunday favqulotda bosdumki chiyillab

ketdi. Ortimdagi mashina ham menikidan pasy ovoz

chiqarmadi. Yaxshiyam yon atrofda "GAI" yòq ekan, bòlmasam bu qoida buzarlilik uchun Salkam yangi "Prado" jarima maydoniga tushardiya.

Ulovimni chekaga olib, osha matotsiklni kòrgan barim tomon

shoshildim. Poshnalarim taqillab battar hayajonimni oshirar edi. Bar

oldida osha-osha tanish mototsikl turar edi, balonlari qalin qop-qora osha tanish mototsikl. U quyoshda turaribdi, bechora ulovga achindim, hali egasini kòrmadim ammo halittan unga ham achina

boshladim. #Yaralangan_kòngillar

Binoga kirishim bilan kòzlarim hecj nimani kòrmay qoldi hisob, yurib borganim sari esa tobora yoruqlashdi. Bir fursat atrofni kuzatdim, odam siyrak. Zaldagi rangli chiroqlar lippilamas sekin aylanardi.

-Kecha tundan beri shu yerda bòlgan biron bir mijoz bormi? -sòradim bardan Shoxni basharasini topolmagach gavdali va soqoli ozmuncha o'siq barmen yigitdan.

-Uzr-u men bilmayman kechagi smenada boshqa ishlagan-dedi u.

-Bilib berolmaysizmi, zarur edida-yumshoq muomala qildim. Yigit yelka qisdi.

-Unday bòlsa-bir eshik tomonga qarab -kochada turgan mototsikl egasini tanimaysizmi?

-Mototsiklga gap yoq-yigit bosh chayaqab qòydi-egasi tanish shu yerda kòp ucharataman

-Shu yigit kerak menga -dedim shoshilib

-Yaxshi qiz, uni kòplar sòrab keladi-yigit boshqacha iljaydi.

Ichimlik quyiladigan stul ustiga 100 mingatalikni shartta tashladim. -qayerdaligini ayt.

Yigit kulib yubordi-ayrim qizlarga qolaman-dee!-u qax-qax otib kular edi-4-

xonada" òchib" qolgan.Olib ketmoqchi bòlsang harajatini tòlab ket-dedi barmen kulishdan tòxtab.

Hech nima demay òsha xona tomon shoshildim,yòlimdagi odamlar menga qiziqish bilan tikilishardi.

1 2 3 va 4-xonaga kelganimda qandaydir kuch kelib eshikni tepib ochdim.Eshik sharaqlab ochilib taraqlagancha bir nimaga tegdi.Chekadagi yumshoq divanda boshini stul ustiga tashlaganча Shoxzamin(chamamda) qimirlamay òtirardi.Kòrgan odam uni òlip-pòlib qolibdi degan uyga keladi,xonani is esa..

chida bòlmaydi odamni bògadi.Bunday atmosferali xonada Shox rostanam tirikmi? degan òy miyyamga keldi.Betartib stuldagi bòsh idishlar,sigaret qoldiqlari bor shisha kuldonlar,bu yerda faqatgina Shoxni bòlmaganini oshkor qiladi.

-Holing shu ekanda-dedim yurib oldiga yaqinlashib-vampir janoblari Sochini siladimda sekin boshini kòtardim,kelishgan yuzdan asar qolmagan deb òylayotgan edim,òsha-òsha oppoq yuz,Hayotnikidek qòngirrang qoshlar...yana boshini joyiga tashladim.

-Eeee y!-uning yelkasiga kòrsatgich barmoğim bilan tegishdim.

U qimir etmadi.Barmoğimni bòyin tomiriga olib bordim,qanday jinnimana axir u vampir bòlsa.,puls unda nima qilsin.Dedimu ammo uni tomiri urar edi,tanasi muzdek.Tezlikda barmoğimni tortib oldim.Demak unda yurak bor,yurak bòlsa qon bòladi,qon bòlsa shuncha yildan buyon qay tarzda yosh tana bilan yashab kelmoqda.Yetmaganidek kashanda ham bu.Nima qilishimni bilmay yelkasidan itardim,zora tanasi qimirlaganini sezib uygonsa.Notugri òylapman yelkasidan itarsam divanga shalp etib quladi.Shoxni tanasi qòlimdan tez chiqib ketadi deb oylamagandim,palakat bosib meniyam tufligimni kablogi sirapnib,òng yelkam stulni qirrasiga qattiq urilib Shoxni ustiga quladim.

#Yaralangan_kòngillar

Yoq men bunday qilolmasdim,uning lablariga labim tegay-tegay deganda ,hatto uni taftini sezganimda men tòxtadim.Kòzim oldidan bir boshidan boshlab Hayot ikkalamizni òtgan kunlarimiz òta boshladi,eng oxirida esa Hayot òpmoqchi bòlganida yuzimni burganim,bularni ichida achinarlisi Hayot ketishidan oldin ozgina jilmayganча men bilan xayrlashagani bòldi.Men unga hiyonat qilolmayman.

Shoxzamin hamon meni kutib turar edi,ayni paytda u kòzimga hayvondek kòrinib ketdi,kònglim behuzur bòlib,undan qanday ozimni olganimni va hech nimaga qaramay Shoxni ustidan bosib òtib,eshikga yònalganimni bilolmay qoldim.

-Senda-ortimdan Shoxni ovozi chiqdi va meni bu tòxtashga majbur qildi-did yoq Muzzam!Sen,senga nomunosib odamlarni sevasan,Hayot senga arzimaydi...

-Ozinga bir qara-jorkanib qaradim unga-ozing kimsan?!Seni odamni

kòrish mumkunmi?Ha ,sen vampirsan...lekin shu nomga ham arzimading hayvoon.

-Hayot senga shu umring davomida nima berdi?Meni barchasidan habarik bor...yashirma seni unda kòngling yoq.Topganlaring asrandi bola bòldi-u gandraklab òrnidan turib ketdi.

Meni esa uni aytayotgan gaplari qonimni qaynatar edi.

-Kim gapirsa gapirsin sen gapirma.Soxta sevgini sendaqalar uchun sotib olish osson,sevgi bu-bir kecha.Har kuni senda sevgan inson almashadi.Notuğri gapirayapmanmi?-baqirib yubordim,ozimni gaplarimga ozim chiday olmay.

-Sen òylaysanki faqat mehr-muruvvat yana qandaydir begubor tuyğular...- u beetibor qayatardi-bu hayotga boshqa xislar bilan ham qarash kerak.

-Jin ursin seni!-tozğib ketgan sochlarimni changalladim-ehtiros nimani hal qiladi???

-Kòp narsani...-uning ovozi past bòlsada,ammo anniq eshitildi.

-SENDAN NAFRATLANAMAN!!!-qòlimga stul ustida turgan bosh shishani oldimda bor kuchim bilan boshiga urdim-LANAT TEGKUR!OLIB KET GAZANDAA!-deb bor ovozim bilan qichqirdim.

U avval qulagan yeriga qayta quladi.Shisha esa chil-chil sindi,hatto qòlimni ham tildi.Kòzlarimda shashqator yosh,ahni damda òlgim keldi.Bir karra Hayotni aybladim,u meni yana atayin qilgadek men uchun kòrishish oğir bòlgan,osha dòstlariga tashlab ketgandi...☒

#

Toğ qòynida bòlgan,butun bino va hovlisi devor bilan òralgan,panajarali darvozasi oldiga bir juft qirmizi kòzlar kelib tòxtadi,òtkir kòzlar ila atrofni kuzatdi.

-Faya Shavkatovna-telefon ortidan Fayruzaning kotibi bòlgan Sardorbekning shoshqaloq ovozi yangaradi.

-Eshitaman-dedi Fayruza rahbarlik ovozida.

-Qorovul xonaga bir rus millatiga oid qiz kelibdi.Qorovulni habar qilishicha qiz shu akademiyada oqimoqchi ekan.Nima qilay? Nodirabegimni oldiga jònataymi,yoki huzuringizgami?

-Yangi qiz bòlsa,oldida u bu kimi bormi?

-Bilmayman,Faya Shavkatovna qorovul bir qiz dedi .

-Juda galati...mayli Nodirabegim ikkalangiz u qizni oldimga eltinglar.-deb bòlgach Fayruza telefonni sharq etib qòydi.

Muazzam yuqolganiga 16 yil bòldi.Ammo Fayruzani hayotida katta ozgarishlar bòldi.Fayruzani taniga odam u qiz hech ham bunday kòtarilib ketadi deb òylamasdi.Muazzamni dugonasi maktabda a'lo baholarga oqir edi,dugonasi imtixon topshirgan yili u "Jahon tillari universiteti"ga òqishga imtixon topshirgan.Fayruza bu institutga imtixondan òtgandi ammo Muazzamni qayğusini oshirmay deb buni unda sir

tutgandi. Nogohon Muazzam bir kechada yuqolib qolgacha u tushkunlikga tushdi, lekin shuni esladiki Muazzam unga oxirgi uchrashishganida bergan savoli galati edi. Demak baxtiga yetdi, oyladi u. Bundan pich yengil tortdiyi konglining bir chetida rostdanam uning yoli togriman degan savol mavhum qoldi. Bundan song kop otmay Fayruza Londonga oqishga ketdi. U bundan benixoya shod boldi, kimam orzuliga birma-bir erishadiyu quvonmaydi. Fayruza samimiy va xushchaqchaq boglani uchunmi, ozi tengi Londonlik boy oila qizlari bilan tez chiqishib ketib qalin dost tutindi. Yoshlik yillari oqish bilan otdi. Orada esa u Ozbekistonga qaytib keldi, va yoshligida bir paytlar hayol qilgan orzularini esladi. U qizlar uchun alohida akademiya ochmoqcho edi...

Unda jahon tillari, sport, fan va boshqa turli yonalishlarga katta urgu berilishini hoxlar edi, bu nafaqat akademiya balki 18-25 yoshlar oraligidagi qizlarga lager ham edi.

Fayruza maqsad qildi. U orzu qilganidek akademiya yaratishga qattiq bel bogladi. Oz uyini garovga qoyib davlatda katta qarz oldi. Olingan pulga togli hududdan keng yer sotib olgacha, pulni yarmini olib qoydi. Olingan joy bahavo, tinch-sokin bolsada yeri tekis va ancha qattiq boladi. Yana bunday uzoq masofaga suv olib borish, usta chaqirib u yerni ishlarini bilan shugullanish mushkul ish. Fayruza yosh bolishiga qaramay mana shunday mas'uliyat qoshida turar edi, yerni olishga olib boshi qotdi, bu orada ta'til tugab Londonga ketdi. Yelkasidagi qarzni kelgusidagi badali, uni ustiga qilayotgan ishlarini masuliyati uni eza boshladi. Bir kuni Fayruzaning ingliz dugonalaridan biri uni bu holini sababini soradi. U ochiq sozlab berdi, uni roparasidagi Londinlik erkatoiy dugobalari bu kabi katta maqsadi bor dugobalaring sozlaridan angrayib qolishdi. Negaki qizlar ozlarini tengdoshlarini bunday harakatidan lol edilar. Shu bilan Londinlik qizlarning dadalari yosh rahbarni qollashga kirishdilar. Ular Fayruzaga homiy bolib, keng yalanglikdan 3 ta bino kotarib berishdi. Bunday olib qaraganda butunlay akademiya Londinlik homiyilar tomonidan qad rostladi. Chet ellik fermalar homiylik qilayotgan qizlar akademiya ozbekistonlik fermalar ham homiylik qilisha boshlashdi. Fayruza akademiya oqituvchilarni ozi yigdi, ozi ham oqituvchi boldi. Fayruza ingliz, rus, fransuz va nemis tillarini yaxshi bilan edi, yana sportdan habari bor.

Fayruza 31 ga kirganida Feyza Shavkatovna nomini oldi. Akademiya yuksalib, uning rahbarini yutuqlari ham oshdi. Hatto davlat prezidenti qizning bu yutuqlarini bemukofot qoldirmay, "Yilning eng yosh va tirishqoq rahbari" mukofoti bilan qutladi.

Shundan song mana 3 yil oldiki, qizlar lageri har yili 600tadan 18 yoshdan 25 yoshgacha bolgan qizlarni qabul qiladi. Fayruza ancha ozini tilklab oldi, uning uy-joyi bor mashinasi, mansab va hurmati bor. Ota-onasini

hojiona-xojiota qildi.Nimaiki niyat qilgan bòlsa barchasiga ega bòldi.Lekin hamon uning boshi ochiq edi,u òylardiki barcha narsam bor er nega kera deb.Albatta,Fayruza uncha-buncha yigit kishi qilolmaydiga ishlarni qildi.Barchasiga uni yengilmas va tinmay qilgan mehnatlari sabab bòldi....Fayruza bir zum òtgan kunlarini òylab,bir zum hayolga botdi.Eshik ochikishidan hayollarin chalğib,kòzoynagini tòğrilab yaxshilab joylash oldi.Xonaga dastlab Sardor sòng Nodirabegim va yangi kelgan qiz kirishdi.Ular gapni boshlashmasidanoq Fayruza vaziyatni tushundi,u odamni qandayligini bilar edi,bunga uni kop yillik oshirgan malakasi sabab.Tezlikdan vaziyatni oz qòliga oldi,va u bu boshqa millatga oid yangi kelgan qizga yashirin hayrat ila razm soldi.Negaki Fayruza bu rangpar qiz kimligini bilar edi.

-Ism-familiyasi Veronika Sergeyeva ,millati rus.-deya qisqacha ma'lumot berdi Nodira jiddiy ovozda.

-Yaxshi,bizning bağrimiz keng-Fayruza Veronikaga òtkir nigohlar bilan qaradi va kotibiga-chiqishinglar mumkun,yangi kelganga ozim etibor qarataman-dedi.

Nodirabegim indamay xonani tark etdi,Sardor esa bir Veronika va bir boshligiga qaragancha xonadan zòrga chiqdi.

Fayruzani ichida qòrquv bòlsada u buni oshkor qilmadi,u bu vampir qizni ne istakda bu yerda turganini bilmas edi,eng yaxshisi ortiqcha guvox va odamlarni qoldirmaslik degan qarorga keldi,shu qarori bilan yordamchilarini xonadan chiqazib yuborgandi.U uchun akademiya dagi qizlarni tinchligi,hamma qiz unga oz qizidek.Xonadan Fayruza va qizdan bòlak odam qolmagacha ,1 daqiqaga qolmay vampir qiz tashlanib qoldi.Arvox kabi òziga tashlangan vampirdan kim chòchimaydi deysiz?Ammo Fayruza òzini yuqotib qòymadi,bòynidan bòğib turgan sovuq qisqich qòllarga tòsqinlik qilmadi.Shunchaki chiroyli oxu kòzlar bilan qarshisidagi qonxòrga kòzoynak ortidan xissiz boqib turar edi.

-Butun lagering aralash yoq qilib yuboraman - dedi qiz vishillagancha rus tili aralash notanish lahchada Fayruzaga qirmizi kòzlar bilan yeb qòygudek baqrayib.

-Nima istaysan...

Shoxzamin turgan xonachaadan choqishim bilan Arslonga urilib ketdim.

-Nima bòldi?Nega kòzingda yosh?Qòling...qòlingni qayerda tilding-havotir aralash U qòlimni ushlab sòroq qila boshladi.

-Arslon tinch qòy meni...-uni hatto yuziga qaramay qòlimni yulqib olgancha kòchaga chiqib ketdim.Òzimga sigmas edim,jaxlim chiqar,bir tomondan ojizaligimdan siqilardim.Kòchaga chiqsam,Shoxni mototsikli kòzimga tashlandi,u menga balodek kòrinib telbaga oshqab oyoğimdagi tuflilarni yechib orqama-ketin mototsiklga ota boshladim.Bu mendan òzgalarga girtta yovoyilikdek kòrinar,lekin ular meni ichimdagi dardni tushunishmaydi va bilishmaydi.Shu ishlardan ham kònglim tòlmay mototsiklni tepdim,u qulagan bòlsada hecham jaxl òlgur

bosilmas,qòlimni qonagani yetnagandek endi oyoğim oğrir edi.

-Bòldi,òzingni bos-Qayerdandir Arslon paydo bòlib ikki qòlimdan qattiq ushlab oldi.

-Arslon,sen uni nima deganlarini bilmaysan-hiqillab qòllarimni chiqarishga urina boshladim

-Nima degan bòlasada gaplarini ozinga olma,u òzida emas-u tushuntira ketdi-oğir bòl,hamma gaplarini unut...hòpmi unut-Arslon menga qarab baland ovozda gapirar edi.

-Qòyvor qòlimni,uyimga ketaman!-unga qichqirdim-Senam Shoxni yonini olasan,undan ham senlardan ham nafratlanam

Baqir-chaqirimdan sòng Arslon qòllarimni qòyib yubordi.Jaxlim tarqay demasdi,tarqatishni da istamas edim.Yalangoyoq mashinam oldiga yurib borib,unga òtirdim,qarsillatib eshikni yopgancha tezlikni birdaniga oshirib shahar bòylab uyga ketdim.

Umuman hech nimani òylamas edim,mashinani uchirib toğ tomonga ketar edim.Uyimga yetmay turib,yòldagi yalanglikga kirib ketgan burilishga haydadim.

Va mashina yòlidan ancha uzoqlashgach mashinadan tushib,atrofqa quloq soldim.Sokinlik...yomon odamlarni baland ovozi va shaharni gavjumlik mujassam bòlgan ovozi yòq.Shu men tinchib qoldim,jaxldan asar qolmadi.Shunday bòlasada Shoxzaminning gaplari miyyamda aylanar edi.

Òtgan ishlar kòz oldimdan film lentasidek birma-bir òtdi.Ayni vaqtlarda qòldan keladigan hech vaqo yòq,faqatma-faqat ojizlik.Kòzimdagi issiq tomgan yosh,yuzlarimni siypalayapti ,qanday achinarli...men yana yolğizman.

Qancha turdik bu yerda nomalum,ozmuncha keng bepayon dalalar bilan dardlashib mashinaga mindim.

Mashinani garajga ham qòymay,uyga kirdim-u 2ta uyqu dori ichib òzimni tushagimga otdim.

Çazab-nafrat doimo bizni mahf etishga urinadi.Shu ğazabni sochsam undan qutulish osson kechadi deb òylaymiz gòyo.Askida bu òylar...òylar emas .

Jaxli chiqqan odam òylamaydi,fikr yuritmaydi.Uning maqsadi yagona bòladi,urish va yanchish,zora shu bizni jaxldan xolos qilishiga ishonamizm

Aytinchi bu harakatlar bilan taqdir izmiga qarshi chiqolamizmi?Yoq u bunga yòl qoymaydi,barcha aybni bizni ustimizga tashlaydi.Qani edi taqdir kòrsatganlar yolğon bòlsa...afsus u doim tòğrisini kòrsatadi.Barchasiga aybdor òzimiz bòlamiz,tanxo òzimiz!

#Yaralangan_kòngillar

